

Uzbekistan Airways Londonda WTM-2022 xalqaro ko'rgazmasida ishtirok etmoqda

2022 8 Noyabr

Uzbekistan Airways 7-9 noyabr kunlari Buyuk Britaniyaning London shahrida bo'lib o'tayotgan WTM-2022 xalqaro sayyohlik ko'rgazmasida "O'zbekiston" milliy stendi tarkibida o'zining aviatsiya imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Uch kun davom etadigan ko'rgazmada mehmonxona, turizmdagi axborot texnologiyalari, rivojlanayotgan turizm bozorlari kabi yo'nalishlar bilan bir qatorda, Uzbekistan Airways aviakompaniyasi yo'lovchi tashish yo'nalishida ham o'z xizmatlarini, hamda ushbu yo'nalishda to'liq xizmat ko'rsatishni namoyish etadi. Mazkur sayyohlik maydoni Buyuk Britaniya va O'zbekiston o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash uchun yaxshi platforma bo'lib, mamlakatlar o'rtasida turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, ko'rgazmada 180 dan ortiq davlatdan 50 mingdan ortiq sayyohlik sohasi mutaxassislari, tashkilotlar va minglab OAV vakillari ishtirok etmoqda.

Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Londonga haftasiga ikki marta muntazam yo'lovchi qatnovlarni amalga oshiradi.